



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 1-fevral

47-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 30-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 3-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida axborotni kriptografik muhofaza qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-614-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2025-yil 27-yanvardagi PQ–30-son qarori ijrosi haqida”gi 42-6-0-Q/25-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, “Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida”gi va “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq, shuningdek, davlat sirlari va konfidensial axborotni kriptografik muhofaza qilish sohasida normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 3-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida axborotni kriptografik muhofaza qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-614-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2025-yil 27-yanvardagi PQ–30-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 30-yanvardagi 42-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 30-yanvardagi 42-6-0-Q/25-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi PQ–30-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 3-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida axborotni kriptografik muhofaza qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-614-son qaroriga ilovaga muvofiq quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi:

axborotni kriptografik muhofaza qilish vositalarini ishlab chiqish tartib-taomillarini takomillashtirishi; davlat sirlarini himoyalashda axborotni kriptografik muhofaza qilish dasturiy vositalaridan foydalanish talablarini belgilashi;

axborotni kriptografik muhofaza qilish vositalarini sertifikatlash muddatini uzaytirishi;

xorijiy muvofiqlik sertifikatlarini tan olish tartibini takomillashtirishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov

